



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO‘JALIGI VAZIRLIGI
HUZURIDAGI AGROSANOAT MAJMUI USTIDAN NAZORAT
QILISH INSPEKSIYASI BOSHIG‘INING
BUYRUG‘I**

2024-yil 9-fevral

UM-8-24-son

**“O‘zagroinspeksiya” faoliyatida ochiq e‘lon qilinishi lozim bo‘lgan
ijtimoiy ahamiyatga molik ma‘lumotlarni axborot resurslarida joylashtirish
va yangilab borish tartibini belgilash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta‘minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6247-son Farmoni ijrosini ta‘minlash **maqsadida**:

B U Y U R A M A N

1. “O‘zagroinspeksiya” faoliyatiga oid ochiq e‘lon qilinishi lozim bo‘lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma‘lumotlar ro‘yxati (keyingi o‘rinlarda - Ro‘yxat) 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Ro‘yxatga kiritilgan ma‘lumotlarni rasmiy veb-sayt, Ochiq ma‘lumotlar portali va boshqa axborot resurslariga joylashtirishning quyidagi tartibi o‘rnatilsin:

- ochiq e‘lon qilinishi lozim bo‘lgan har bir ma‘lumot mas‘ul tarkibiy tarmoq tomonidan belgilangan shaklda, sifatli va to‘liq shakllantirib, ularni elektron shaklda Inspeksiya boshlig‘i matbuot kotibiga taqdim etiladi;

- Inspeksiya boshlig‘i matbuot kotibiga taqdim etilgan barcha ma‘lumotlar shu kunning o‘zida mas‘ul tarkibiy tarmoq tomonidan **“edo.ijro.uz”** tizimiga kiritib boriladi;

- Inspeksiya boshlig‘i matbuot kotibi (*Shadiyeva*) taqdim etilgan ma‘lumotlarning rasmiy veb-sayt, Ochiq ma‘lumotlar portali va boshqa axborot resurslariga belgilangan format va o‘lchamlarda joylashtirilishini ta‘minlaydi.

3. Mas‘ul tarkibiy tarmoqlar tomonidan Ro‘yxatda ko‘rsatilgan ma‘lumotlarni Inspeksiya boshlig‘i matbuot kotibiga taqdim etishning oxirgi muddati (ma‘lumotlarni yangilab borish muddati qonunchilik hujjatlarida aniq belgilangan holatlar bundan mustasno) quyidagi tartibda hisoblanadi:

- doimiy (muntazam) yangilab boriladigan ma‘lumotlar – **bir sutkadan kechiktirilmay**;

- har oyda yangilab boriladigan ma‘lumotlar – keyingi oyning **uchinchi sanasiga qadar**;

- har chorakda yangilab boriladigan ma‘lumotlar – har chorak yakunidan keyingi oyning **beshinchi sanasiga qadar**;

- har yarim yillikda (har olti oylik) yangilab boriladigan ma'lumotlar – har olti oy yakunidan keyingi oyning **o'ninchi sanasiga qadar**;

- har yillik (bir yilda bir marotaba) yangilab boriladigan ma'lumotlar – har yil yakunidan keyingi yilning **15-fevralga qadar**.

4. “O'zagroinspeksiya” faoliyatiga oid ochiq e'lon qilinishi lozim bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlarning namunaviy shakllari **2-20-ilovalarga** muvofiq tasdiqlansin.

5. Rasmiy veb-sayt, Ochiq ma'lumotlar portali va boshqa axborot resurslarini yuritish, ma'lumotlarni ochiqlikni ta'minlashga oid qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan tartib-taomillar asosida (vab-manzil, format, o'lcham, shakl va boshqa talablar) joylashtirish (e'lon qilish) hamda davriy yangilab borishga Matbuot kotibi (Shadiyeva) mas'ul ekanligi qayd etilsin.

6. Ro'yxatda ko'rsatilgan ochiq ma'lumotlarni ishlab chiqilishiga mas'ul etib belgilangan tarkibiy tarmoq rahbar va xodimlari ularni o'z vaqtida, qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan hajmda, sifatli va to'liq shakllantirilishi hamda Matbuot kotibiga taqdim etilishiga mas'ul va shaxsiy javobgar etib belgilansin.

7. Ma'lumotlarni o'z vaqtida taqdim etmagan yoki noto'g'ri ma'lumot taqdim qilgan tarkibiy tarmoq rahbar va xodimlari qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlikka tortilishi haqida ogohlantirilsin.

8. Inspeksiya boshlig'i matbuot kotibi (Shadiyeva):

- “O'zagroinspeksiya”ning ochiqlikni ta'minlash sohasini doimiy muvofiqlashtirib borsin;

- tahlillar va keng jamoatchilik fikrini o'rganish asosida rasmiy veb-saytda ochiq e'lon qilinishi lozim bo'lgan ma'lumotlarning ko'lamini kengaytirish, sifatini oshirish va dolzarbligini ta'minlash bo'yicha takliflar ishlab chiqsin hamda ularni amalga oshirish choralarini ko'rsin;

- “O'zagroinspeksiya” faoliyatiga oid ochiq ma'lumotlarni ishlab chiqilishiga mas'ul etib belgilangan tarkibiy tarmoqlar tomonidan ma'lumotlarni Matbuot kotibiga taqdim etish tartibining buzilishi holatlari haqida munosabat bildirish yuzasidan rahbariyatga o'z vaqtida takliflarni kiritib borsin.

9. Inspeksiya boshlig'i matbuot kotibi (Shadiyeva), Axborot tahlil, ijro intizomi va ma'muriy amaliyot boshqarmasi (Hasanov), Korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha mas'ul xodimi (Pirnazarov):

“O'zagroinspeksiya” mas'ul tarkibiy tarmoqlari tomonidan ma'lumotlarni o'z vaqtida taqdim etilishi hamda **“edo.ijro.uz”** tizimiga kiritilishini nazoratga olib umumlashtirsin, natijalari bo'yicha “O'zagroinspeksiya” boshlig'iga muntazam axborot berib borsin.

10. Ushbu farmoyish ijrosini nazorat qilishni o'z zimnamda qoldiraman.

Boshliq
Toshkent sh.



A.Vaxabov